



CHET TILLARINI O'RGANISHDA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISH USULLARI

Nurmatova Munisxon Mashrabovna PhD,

Farg'ona davlat universiteti,

Jo'rayeva Zahro

Chet tillari, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ma'lum chet tilini o'zlashtirish jarayonida, shubhasiz, ana shu tilning lug'at tarkibi - unda mavjud bo'lgan faol so'zlar ro'yhati bilan tanishish va o'rganish talab etiladi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishda lug'at boyligini oshirish uchun keng foydalaniladigan usullar va ularning ahamiyati ilmiy tarzda yoritiladi. Xususan, tasodifiy va maqsadli lug'at o'zlashtirish o'zaro taqqoslanib, ularning yozish, o'qish, gapirish, tinglab tushunish ko'nikmalariga bevosita ta'siri ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *lug'at boyligi, yangi so'zlarni o'zlashtirish strategiyalari, tasodifiy o'rganish usuli, maqsadli o'rganish usuli.*

Annotation: *In the process of mastering a foreign language, it is essential to become familiar with and learn the vocabulary of that language — the list of active words it contains. This article examines methods widely used to expand vocabulary in foreign language learning and teaching, highlighting their practical and scientific significance. In particular, incidental and intentional vocabulary learning approaches are compared, and their direct impact on writing, reading, speaking, and listening comprehension skills is analyzed.*

Keywords: *Vocabulary knowledge, strategies for acquiring new words, incidental learning method, intentional learning method*

Аннотация: *В процессе освоения иностранного языка крайне важно ознакомиться с лексикой данного языка и изучить её — список активных слов, которыми он располагает. В данной статье рассматриваются методы, широко используемые для расширения словарного запаса при изучении и преподавании иностранных языков, с акцентом на их практическое и научное значение. В частности, сравниваются подходы случайного и целенаправленного усвоения словарного запаса и анализируется их прямое влияние на навыки письма, чтения, говорения и понимания на слух.*

Ключевые слова: *Словарный запас, стратегия, усвоения новых слов, метод случайного обучения, метод целенаправленного обучения*

Ma'lumki, chet tillarini o'rganishdagi asosiy qadam uning lug'at tarkibini o'rganishdir. Biron til tarkibidagi so'zlarni o'rganmasdan turib, na uni tushunish mumkin, na undan foydalanish mumkin. Lug'at o'zlashtirish o'z navbatida ko'p



vaqt va sabr talab etuvchi jarayonlardan biri bo'lib, o'rganuvchidan alohida yondashuv talab etishi tabiiy. Ko'plab til o'qituvchi va o'quvchilar bugungi kunga qadar yangi so'zlarni tarjimasini bilan takror-takror qaytarib yod olish usulini faol qo'llab kelganlar. Biroq hozirgi zamonaviy davrda olimlar yangi so'zlarni yodlash orqali lug'at o'rganishning ayrim kamchiliklari ham mavjudligini ta'kidlaydi. Buning sababi shundaki, lug'at yodlash ko'pincha so'zning leksik jihatni e'tiborsiz qoldirishga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, "o'quvchilar lug'atni aniq shaklda ishlatishni bilishadi, lekin ular uni haqiqiy hayotdagi muloqotda turli xil ma'nolari bilan qanday ishlatishni bilishmaydi" (Graves, 2006). Har bir o'rganilgan so'z yozma va og'zaki nutqda faol iste'molda bo'lishini ta'minlash uchun esa lug'at o'zlashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish, eng samarali usullarni saralash kerak. Quyida ana shu usullarning eng keng tarqalgan shakllaridan bo'lgan tasodifiy o'rganish va maqsadli o'rganish usullari, ularning ahamiyati, farqi va kamchiliklariga haqida batafsil to'xtalamiz.

Lug'at o'rganishda samara berishi mumkin bo'lgan usullardan biri bu – tasodifiy o'rganish usulidir. Bunda til o'rganuvchisi maqsadli emas, balki tabiiy ravishda so'zlarning ma'nolari va qo'llanish holatini eslab qoladi. Masalan, o'rganuvchi o'z darajasidan kelib chiqqan holda chet tilida kinofilmlar ko'rishi, musiqa tinglashi, badiiy asar o'qishi yoki shu tilni biluvchilar bilan og'zaki yoki yozma muloqot qilishi mumkin. Bu jarayonlar natijasida o'quvchi o'zi uchun notanish bo'lgan so'zlarning ma'nolarini kontekstdan anglab olishga harakat qiladi va eslab qoladi. Tabiiyki, bu usul an'anaviy "book -kitob" tarzida takrorlashdan qiziqarliroq bo'lib, o'quvchini o'zi bilmagan holda ko'plab so'z va iboralar bilan tanishib olishiga zamin yaratadi. Tadqiqotlarga ko'ra, tasodifiy o'rganish orqali o'zlashtirilgan so'zlarning xotirada saqlanib qolishi maqsadli o'rganilgan so'zlardan ko'ra kuchliroqdir. Negaki bu jarayon tabiiy bo'lib, huddi chaqaloq o'z ona tilini tinglash va ko'rish orqali tabiiy o'rganib amaliyotga olib kirgani kabi til o'rganuvchi ham yangi so'zlarni o'zi bilmagan holda yodlab oladi va og'zaki, yozma nutqda qo'llay boshlaydi, o'qish va tinglash orqali uning mazmunini to'liq anglaydi. "Restrepo Ramos shunday deydi: "Ma'noni tushunish uchun o'qish orqali tasodifiy lug'at o'rganish yuz berishini qo'llab-quvvatlaydigan kuchli dalillar mavjud." (Restrepo Ramos indicates that "there is strong evidence that supports the occurrence of incidental vocabulary learning through reading for meaning comprehension".)

Ikkinchi lug'at boyitish usuli maqsadli o'rganish bo'lib, til o'rganuvchilari tomonidan eng ko'p qo'llaniladi. Yuqorida tariflangan tasodifiy o'rganish usulida asosiy e'tibor umumiy gap yoki matn mazmunini anglab olishga qaratilsa, maqsadli o'rganish usuli undan farqli ravishda har bir so'zning tarjimasini yaqqol eslab qolishga qaratiladi. Bu jarayonda o'rganuvchi yangi so'zlar yodida qolishi uchun uni qayta-qayta takrorlashi yoki boshqa turli interaktiv usullar, jumladan, kartochkalar, rasmlar orqali mustahkamlashi mumkin. Maqsadli lug'at o'rganish til o'rganishda



o'quvchining ma'lum so'zlarni ongli ravishda yodlab olishini nazarda tutadi. Bu yondashuvda so'zlarni o'rganish jarayoni faollik va ongli e'tibor bilan amalga oshiriladi. O'quvchi so'zning ma'nosi, talaffuzi, yozilishi va grammatik xususiyatlarini alohida o'rganadi. "Turli lingvistlar bu tushunchani turlicha atashadi: Nation "decontextualized learning" deb, Elgort "deliberate learning", DeCarrico esa "explicit learning" atamalarini ishlatadi" (Dodigovic and Nation emphasize the same distinction—only using a different term for the one side of this dichotomy: deliberate vocabulary learning. Nation also adds another nuance to this concept by calling it "deliberate, decontextualized vocabulary learning".) Maqsadli lug'at o'rganish tarafdorlari ta'kidlashicha, kontekst muhim bo'lsa-da, o'quvchilar yetarli lug'atni shakllantirish va o'qish davomida matnni tushunish strategiyalarini o'zlashtirish uchun dastlab maqsadli o'rganish usuli orqali faol lug'at tarkibini yod olishi kerak. Bu ayniqsa past va o'rta darajadagi o'quvchilar uchun samarali, chunki ular faqat tasodifiy o'rganishning o'zi bilan kutilgan natijaga erisha olmaydi. Maqsadli lug'at o'rganish metodlari: flesh-kartalar, so'z jurnali, takroriy mashqlar, so'zlarni tahlil qilish va lug'atdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu yondashuv e'tiborni maqsadli so'zlarga qaratadi, xotirada saqlash imkoniyatini oshiradi va so'zlarni chuqurroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Ko'p hollarda yuqoridagi ikki o'rganish usuli bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi va ustozlar "qay biri samaraliroq" ligi xususida bahslashadilar. Biroq chet tilini o'rganuvchilar tasodifiy va maqsadli o'rganish usullaridan birini emas, ikkisini birgalikda qo'llasalargina foydali bo'ladi deb hisoblayman. Negaki ikki usul bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, birini ikkinchisidan alohida ko'rib bo'lmaydi. Masalan, o'quvchi chet tilida ko'rgan biron filmi yoki musiqasining ma'nosini kontekstdan anglashi uchun ham shu nutq tarkibidagi kamida 85% so'zni bilishi talab etiladi. "Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, matnni tushunish uchun undagi 85% so'zlar o'quvchiga tanish bo'lishi kerak" (However, as research shows, 85% of the words must be familiar to the reader to understand a text). Tildagi faol so'zlar qatlamini esa maqsadli o'rganish, ya'ni takrorlash, lug'at daftariga yozish, kartochkalarga yozish, rasmlar bilan eslab qolish kabi usullardan foydalangan holda o'zlashtirish ham oson ham samaralidir. Shunday qilib, chet tilini o'rganishda tasodifiy va maqsadli o'rganish usullarini uyg'un qo'llash o'quvchiga tilni tezroq va chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Tasodifiy o'rganish orqali kontekstual tushuncha shakllanadi, tilning tabiiy ohangini his qilish osonlashadi, maqsadli o'rganish esa so'z boyligini mustahkamlash, grammatikani chuqurroq o'rganish va nutqiy qobiliyatni oshirishga yordam beradi. Shu yo'l bilan o'quvchi yangi so'z va iboralarni mustahkam eslab qoladi, ularni muloqotda erkin ishlata oladi va tilni o'rganish jarayoni samarali hamda qiziqarli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, samarali til o'rganish strategiyasi — bu ikki usulni birlashtirib, ularni bir-birini to'ldiruvchi vosita sifatida ishlatishdir. Bu yondashuv o'quvchiga nafaqat so'z boyligini oshirish, balki tilni tushunish va ishlatish



malakasini mustahkamlash, hamda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni doimiy ravishda uyg'otib borish imkonini beradi. Shuning uchun til o'rganish jarayonida har ikki usulni uyg'unlashgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Decarrico, J. S. (2001). "Vocabulary Learning and Teaching". In Celce-Murcia, Marianne (ed.). Teaching English as a Second or Foreign Language (3rd ed.). Boston: Heinle & Heinle. ISBN 9780838419922 – via ResearchGate.
2. Dodigovic, M. (2013). "Vocabulary Learning: An Electronic Word Card Study". Perspectives. 20 (1). TESOL Arabia Publications.
3. Dodigovic, M. (2015). "How Incidental is Incidental Vocabulary Learning?". In Gitsaki, C.; Gobert, M.; Demirci, H. (eds.). Current Issues in Reading, Writing and Visual Literacy: Research and Practice. Cambridge Scholars. Cambridge. pp. 203–215. ISBN 978-1-4438-8030-5.
4. Dodigovic, M.; Jeaco, S.; Wei, R. (2017). "Trends in Vocabulary Research". TESOL International Journal. 12 (1): 1–6 – via ResearchGate.
5. Elgort, I. (2011). "Deliberate Learning and Vocabulary Acquisition in a Second Language" (PDF). Language Learning. 61 (2): 367–413. doi:10.1111/j.1467-9922.2010.00613.x.
6. Elgort, I.; Warren, P. (2014). "L2 Vocabulary Learning From Reading: Explicit and Tacit Lexical Knowledge and the Role of Learner and Item Variables". Language Learning. 64 (2): 365–414. doi:10.1111/lang.12052. ISSN 0023-8333.
7. Gu, P. (2003). "Vocabulary Learning in a Second Language: Person, Task, Context and Strategies". The Electronic Journal for English as a Second Language. 7 (2).
8. Hirsh, D.; Nation, P. (1992). "What Vocabulary Size is Needed to Read Unsimplified Texts for Pleasure?" (PDF). Reading in a Foreign Language. 8 (2): 689–696. doi:10.64152/10125/67046. Archived from the original (PDF) on 2006-09-05.
9. Huckin, T.; Coady, J. (June 1999). "Incidental Vocabulary Acquisition in a Second Language: A Review". Studies in Second Language Acquisition. 21 (2): 181–193. doi:10.1017/S0272263199002028. ISSN 1470-1545. S2CID 145288413.
10. Hulstijn, J. H. (2001). "Intentional and Incidental Second-language Vocabulary Learning: A Reappraisal of Elaboration, Rehearsal and Automaticity". In Robinson, P. (ed.). Cognition and Second Language Instruction. Cambridge University Press. pp. 258–286.
11. Jian-ping, L. (2013). "Is Incidental Vocabulary Acquisition Feasible to EFL Learning?" (PDF). English Language Teaching. 6 (10). Canadian Center of Science and Education: 245–251. doi:10.5539/elt.v6n10p245. ISSN 1916-4750.



12. Kennedy, G. (2003). "Amplifier Collocations in the British National Corpus: Implications for English Language Teaching". *TESOL Quarterly*. 37 (3): 467–487. doi:10.2307/3588400. JSTOR 3588400.
13. Laufer, B. (1989). "What Percentage of Text-lexis is Essential for Comprehension?". In Lauren, Ch.; Nordman, M. (eds.). *Special Language: From Humans Thinking to Thinking Machines*. Multilingual Matters. pp. 316–323 – via ResearchGate.
14. Lawrence, J.; Capotosto, L.; Branum-Martin, L.; White, C.; Snow, C. (2010). "Language Proficiency, Home-language Status, and English Vocabulary Development: A Longitudinal Follow-up of the Word Generation Program" (Unpublished manuscript). Harvard University.